



## XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 29-aprel

VII-9-53-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

**“O‘zbekiston-2030” strategiyasida belgilangan 13-21-maqсадлар, “Dori vositalари ва farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining ijrosi yuzasidan hamda Onalar va bolalar o‘limini qisqartirish, sog‘lom bolalikni ta’minlash va boshqa kasallikkarni oldini olishda amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risidagi Kattaqo‘rg‘on tuman tibbiyat birlashmasi boshlig‘i**

**V.Xudoyqulovning hisoboti haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoniga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-apreldagi “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini aholiga yaqinlashtirish va tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-215-sonli Qaroriga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- 24- va 25<sup>5</sup>-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, to‘qqizinchisi sessiyasi

### QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston-2030” strategiyasida belgilangan 13-21-maqсадлар, “Dori vositalари ва farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining ijrosi yuzasidan hamda Onalar va bolalar o‘limini qisqartirish, sog‘lom bolalikni ta’minlash va boshqa kasallikkarni oldini olishda amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risidagi Kattaqo‘rg‘on tuman tibbiyat birlashmasi boshlig‘i V.Xudoyqulovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Kattaqo‘rg‘on tuman tibbiyat birlashmasi (V.Xudoyqulov)ga:

- tibbiyotning birlamchi bo‘g‘inidan boshlab davlat dasturlarining bajarilishi, kasalliklar profilaktikasining holati, sog‘lom turmush tarzini va to‘g‘ri ovqatlanishni shakllantirish, shuningdek sog‘liqni saqlashning asosiy ko‘rsatkichlari ustidan nazoratni kuchaytirish va manzilli skrining tekshiruvlarini joriy etish;

- aholi o‘rtasida barkamol sog‘lom avlodni tarbiyalashga, ona va bola salomatligini muhofaza qilishga, tibbiy etika va deontologiya, sanitariya-gigiyena ko‘nikmalari, oqilona ovqatlanish qoidalariga rioya etishga, tug‘ma patologiya va irsiy kasallikkarni kamaytirishga yo‘naltirilgan profilaktika tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish;

- olis va chekka hududlardagi oilaviy shifokorlik punktlarida shifokorlarga bo‘lgan ehtiyojni mahallalar kesimida aniqlash, vakant o‘rinlar ro‘yxatini shakllantirish va muntazam yangilab borish;

- tuman ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalarida “To‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzi” xonalarining jihozlanish jadvalini va tibbiy xodimlar vazifalarini belgilash, ushbu xonalarda ommaviy targ‘ibot va skrining tadbirlarini o‘tkazish bilan birgalikda sog‘lom turmush tarzi asoslari bo‘yicha individual maslahat berish tizimini joriy etish;

- zarur kafolatlangan paketga kiruvchi 27 turdagи dori vositalarining hajmi va turi haqida ma’lumot asosida zarur ehtiyojni aniqlab, xarid ishlarini amalga oshirish;

- har bir dori vositasining yaroqlilik muddati xarid vaqtida kamida 12 oydan kam bo‘lmasligi, qisqa muddatli (3-6 oy) dori vositalari faqat maxsus holatlar (intensiv davolash yoki shoshilinch ehtiyoj) uchun xarid qilinishga alohida e’tibor qaratish;

- tuman ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalar va oilaviy poliklinikalar hamda oilaviy shifokor punktlari mudirlarining mahalla fuqarolar yig‘inlarida hisobot berish grafigini ishlab chiqish hamda eshitilgan hisobot bo‘yicha Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashiga har choraklik ma’lumot kiritish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman hokimi o‘rribosari, oila va xotin-qizlar bo‘limi (S.DJumayeva), tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (Sh.Sultonov), O‘zbekiston mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (G’.To‘ychiyev) voyaga yetmaganlar o‘rtasida erta tug‘ruq holatlarni oldini olish yuzasidan aholi o‘rtasida targ‘ibot tashviqot ishlarini amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman hokimi o‘rribosari O.Shirinov, tuman adliya bo‘limi (B.Boymurodov), tuman tibbiyot birlashmasi (V.Xudoyqulov) tuman tibbiyot birlashmasida korrupsiyaga qarshi kurashish va korruption holatlarni oldini olish yuzasidan targ‘ibot tadbirlari o‘tkazib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (J.Safarov), “Kattaqo‘rg‘on kecha va bugun” gazetasi bosh muharriri O’.Usmonov aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko‘rsatilishi, uning o‘z vaqtida va yuqori sifatli bo‘lishini ta’minalash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (D.Mirzaxonova) tuman hokimi o‘rribosari O.Shirinov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV  
JAMSHID  
TULKINOVICH